

TRANSPANTOLOGİYADA MIKROXIRURGIYANING QO'LLANISHI

Radjabov Bekzod

Operativ xirurgiya va topografik anatomiya kafedrasi asistenti

Musulmonqulova Sevinch

*308-A guruh talabasi*MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

*Received: 10.12.2025**Revised: 11.12.2025**Accepted: 12.12.2025*

KALIT SO'ZLAR:

*anastomoz,
mikroxirurgiya,
transplantatsiya,
transplantant, arteriya,
limfa, optik vositalar,
nekroz,
autotranspkantatsiya**Ushbu ilmiy ishda mikroxirurgiyaning transplantologiyadagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Transplantologiya zamonaviy tibbiyotning eng murakkab va yuqori texnologik yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mikroxirurgik texnikalarning rivojlanishiga bog'liq. Mikroanatomiya, mikroasboblarning va operatsion mikroskoplardan foydalanish a'zolari ko'chirib o'tkazish jarayonini sezilarli darajada takomillashtiradi.***Mikroxirurgiya nima?**

Mikroxirurgiya zamonaviy operativ xirurgiyaning bir tarmog'i bo'lib, u optik vositalar va mikrojarrohlik asboblari bilan foydalangan holda kichik anatomik tuzilmalarda jarrohlik amaliyotini o'tkazishni o'z ichiga oladi. Xozirga kelib mikroxirurgiya genekologiya, autotransplantatsiya, transplantatsiya, oftalmologiya, otolaringologiya, neyroxirurgiya va boshqa sohalarda keng qo'llanib kelinmoqda.

Transplantologiyada mikroxirurgiya ahamiyati

Mikroxirurgiya transplantologiyada, ayniqsa, mayda qon tomirlari va nerv tolalarini anastomoz qilish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bunday anastomozlar transplantantning

qon bilan ta'minlanishini tiklash, uning hayotini saqlab qolish va nekrozning oldini olishda asosiy omildir. 1-3 mm diameli tomirlarni tikishda faqat mikroxirurgiyadan foydalanish mumkin.

Yuz transplantatsiyasida mikrojarrohlik

Yuz transplantologiyasi mikrojarrohlikning eng yangi va eng innovatsion usuli hisoblanadi. Ular jiddiy kasallik, qattiq kuyishlar, hayvonlarning hujumlari yoki o'q jarohatlari kabi oqibatlar tufayli yuziga kata hajmdagi zarar yetgan bemorlarga nisbatan ishlatiladi. Bunda bemorning tanasidagi boshqa qismning to'qimalarini olib yuzga qo'yish imkoni yo'q. Buning o'rniga protsedura o'lgan bemordan anatomic bir xil to'qimalarni tiklab, tirik bemorga biriktiriladi. Keyin biriktirilgan sohaga arteriya, vena tomirlarini ulashda mikroxirurgiyadan foydalanish zarur. Undan tashqari yuz transplantologiyasi puxta va aniq protsedura. Unda qilingan millimeter hato ham ko'zga ko'rinadi, bu esa mikroxirurgiyaning yuz transplantologiyasiga ahamiyati kata ekanligining isboti.

Jigar transplantologiyasida mikrojarrohlik

Jigar transplantologiyasi hayotni saqlab qoluvchi protseduralardan bo'lib, uning asoratlari jarrohlarda ikkilanishga olib kelayotgan edi. Jigar arteriyasi trombozi, eng xavfli asoratlardan biridir. Jigar arteriyalarini rekonstruksiya qilish uchun mikrojarrohlik usullarini qo'llash jigar arteriyasi trombozixavfini sezilarli darajada kamaytirdi va tomirlarda anastomozlar hosil qilishda qo'l keldi. Mikroxirurgiya transplantologiyadan keying asorat xavfini ancha pasaytiradi.

Oxirgi ikki yillikda mikroxirurgiya transplantologiyada

So'ngni yillarda mikroxirurgik texnikalar robot-assistirlangan transplantatsiya bilan uyg'unlashib, jarrohlarga aniqroq, minimal invaziv va xavfsiz operatsiyalarni bajarish imkonini bermoqda. Ayniqsa, limfa tomirlarini anastomoz qilish, murakkab vaskulyar strukturalarni tiklash va qiyin anatomic zonalarda ishlashda robot texnologiyalarning roli oshib bermoqda.

Xulosa

Transplantologiyada mikroxirurgiyaning joriy etilishi transplantantlarning yashash ko'rsatkichlarini oshirdi, murakkab to'qima va a'zolari tiklash imkonini yaratdi va rekonstruktiv jarrohlikning yangi bosqichini boshlab berdi. Mikrotexnologiyaning yanada rivojlanishi transplantologiyaning kalajakdagi muvaffaqiyatlarida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Sabiston “Textbook of surgery”
2. Green’s Operative hand surgery
3. Clinical Transplantation Journal
4. Yalemedicine.org
5. Researchgate.net
6. Ru.wikipedia.org

